



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko'chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94, (76) 221-74-81

2021 йил «27» август

VI-35-79-8-0-K/21

Сурхондарё вилояти ҳокимлиги

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5216-sonli qarorining 6-bandini ijrosini ta'minlash to'g'risida**

Viloyatda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar 4 637 nafarni (shundan, vasiylikka olinganlar soni 2 243 nafarni, homiylikka olinganlar soni 1 851 nafarni, oilaga tarbiya (patronat)ga olinganlar soni 17 nafarni, chin yetim bolalar soni 526 nafarni) tashkil etadi.

Shuningdek, viloyatimizda bitta mehribonlik uyi mavjud bo'lib, “Mehribonlik uyi” 1928-yilda Boysun tumanida tashkil etilgan bo'lib, 2010-yilda Termiz shahriga ko'chirilgan.

Hozirda ushbu mehribonlik uyida jami 51 nafar (shundan, 15 nafari qiz bolalar) voyaga yetmaganlar tarbiyalanmoqda.

Mehribonlik uyida jami 70 nafar ishchi xodimlar (shundan, tarbiyachilar soni 17 nafar, pedagog xodimlar soni 9 nafar, tibbiyot xodimlar soni 9 nafar, ishchi xodimlar soni 34 nafar) faoliyat yuritib kelmoqda.

Mazkur Mehribonlik uyi ikki qavatli, 4 ta bino, 53 ta xona, 70 o'rindan iborat bo'lib, tarbiyalanuvchilarni ovqatlantirish uchun zal va qo'shimcha xonalardan iborat.

Bugungi kunda tuman va shahar hokimlari hamda sektor rahbarlari tomonidan bolalarni homiylik, vasiylik va oila patronatiga berish ishlari e'tibordan chetda qoldirilmoqda.

Bu esa ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hamda yetim bolalarni qo'llab-quvvatlash borasidagi olib borayotgan ishlarimiz yaxshi emasligini ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5216-sonli qarorining 6-bandining ijrosini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5216-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun

qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Mamanov), viloyat Moliya bosh boshqarmasi (B.Xursanov):

Termiz shahridagi 12-son Mehribonlik uyini o‘tgan 2010-2020-yillar davomida tamomlagan bitiruvchilarini bosqichma-bosqich uy-joy bilan ta‘minlash;

joriy yilda 13 nafar yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan ta‘minlash uchun viloyat mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari va boshqa mablag‘lar hisobidan 1 mlrd. 14 mln. so‘m mablag‘ ajratish choralarini ko‘rsin.

3. Viloyat prokuraturasi (S.Turdiyev) yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan ta‘minlash yuzasidan ajratilgan mablag‘ni o‘z vaqtida va samarali foydalanishini nazoratga olsin.

4. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorak yakunida tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari viloyat Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha komissiyasi (Sh.Xolliyeva) zimmasiga yuklansin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Кенгаш раиси**



**Bobolov T.A.**